



BUXORO AMIRLIGINING ROSSIYA BILAN IQTISODIY VA SIYOSIY MUNOSABATLARI

Samadova Ruxshona

Buxoro Davlat Unversiteti 4-kurs talabasi

Qudratov Shuhrat

Ilmiy rahbar, Buxoro Davlat unvesiteti dotsenti,t.f.f.d.(PhD)

Tel: +99897-130-35-65

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20066561>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-may 2026 yil

Ma'qullandi: 5-may 2026 yil

Nashr qilindi: 6-may 2026 yil

KEY WORDS

Buxoro amirligi, Chor Rossiyasi, iqtisodiy aloqalar, savdo munosabatlari, eksport-import, rus kapitali, ichki bozor, tashqi savdo, temir yo'l infratuzilmasi, bank tizimi, sanoat mahsulotlari, iqtisodiy siyosat, mustamlakachilik, iqtisodiy qaramlik, geosiyosiy raqobat.

ABSTRACT

Mazkur maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Chor Rossiyasi hamda Buxoro amirligi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini keng qamrovda tahlil qilinadi. Maqolada Rossiya imperiyasining Buxoro amirligi hududiga kirib borish siyosati, savdo aloqalarining kengayishi hamda eksport-import tarkibidagi o'zgarishlar tarixiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, maqolada rus tovarlarining ichki bozorlarda ustunlikka erishishi, mahalliy ishlab chiqarishning qisqarishi va tashqi savdo tizimining Rossiya manfaatlariga moslashuvi jarayonlari tahlil etiladi. Temir yo'l infratuzilmasining qurilishi, bank tizimining shakllanishi hamda rus kapitalining kirib kelishi natijasida Buxoro amirligi iqtisodiyotining Rossiyaga iqtisodiy jihatdan qaram bo'lib borishi asoslab beriladi.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Markaziy Osiyo hududi yirik imperiyalar manfaatlarini to'qnashgan muhim geosiyosiy makonga aylandi. Ayniqsa, Chor Rossiyasining Buxoro amirligi bilan olib borgan siyosiy, harbiy va iqtisodiy aloqalari ushbu davr tarixida alohida o'rin tutadi. Rossiya imperiyasi Buxoro hududiga nafaqat harbiy-strategik jihatdan, balki iqtisodiy manfaatlar nuqtai nazaridan ham katta e'tibor qaratdi. Mazkur jarayonda Buxoro amirligi iqtisodiy tizimi asta-sekin Rossiya iqtisodiyotiga bog'lanib bordi. Savdo munosabatlarining kengayishi, rus tovarlarining ichki bozorlarda ustunlikka ega bo'lishi hamda mahalliy ishlab chiqarishning siqib chiqarilishi iqtisodiy mustaqillikning zaiflashuviga olib keldi. Ayniqsa, temir yo'l qurilishi, bank tizimining kirib kelishi va savdo imtiyozlarining berilishi ushbu jarayonni yanada tezlashtirdi. Shu bois ushbu maqolada Chor Rossiyasi va Buxoro amirligi o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar, savdo munosabatlari hamda ularning amirlik iqtisodiyotiga ko'rsatgan ta'siri ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Mazkur tadqiqotda tarix fanining zamonaviy metodologik yondashuvlari qo'llanildi. Jumladan, tarixiylik prinsipi asosida voqea va jarayonlar o'z davri kontekstida o'rganilib, ularning rivojlanish bosqichlari izchil tahlil qilindi. Tizimlilik yondashuvi yordamida Buxoro amirligi

iqtisodiyoti va Chor Rossiyasi iqtisodiy siyosati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kompleks tarzda ko'rib chiqildi.

Shuningdek, qiyosiy-tarixiy metod orqali turli davrlardagi savdo ko'rsatkichlari, eksport-import hajmlari hamda iqtisodiy o'zgarishlar solishtirildi. Statistika ma'lumotlar tahlili asosida iqtisodiy jarayonlarning miqdoriy ko'rsatkichlari aniqlanib, ularning dinamikasi ochib berildi. Tadqiqot jarayonida arxiv materiallari, tarixiy hujjatlar, ilmiy maqolalar va monografiyalar asosiy manba sifatida foydalanildi. Analitik va sintez usullari orqali to'plangan ma'lumotlar umumlashtirilib, ilmiy xulosalar chiqarildi. Bundan tashqari, mantiqiy tahlil usuli yordamida iqtisodiy jarayonlarning sabab-oqibat bog'liqligi aniqlab berildi. Mazkur metodologik yondashuvlar tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minlab, Buxoro amirligi va Chor Rossiyasi o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning mohiyatini chuqur yoritishga imkon berdi.

Chor Rossiyasi O'rta Osiyoga, jumladan, Buxoro amirligi hududlariga uyushtirgan harbiy harakatlaridan nafaqat siyosiy, harbiy-strategik maqsadlarni, balki iqtisodiy maqsadlarni ham ko'zlagan edi. Jumladan, u Buxoro amirligi bilan tuzmoqchi bo'lgan ilk shartnoma loyihalarida, so'ngra 1868-yil may oylarida ikki tomonlama imzolangan sulh shartnomalari va 1873-yil imzolangan do'stlik shartnomasida¹ Buxoroga nisbatan o'zining iqtisodiy talablarini ilgari surganligi ham bejiz emas edi. Chunki Rus hukumati dastlabki kunlardan oq, Buxoro amirligi iqtisodiyotiga kirib borish va imkon darajasida unga aralashish, uni o'z izmiga tushirib olish, kerak bo'lganda uni to'la ravishda o'z manfaatlarini asosida rivojlanishiga erishishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'ygan edi.

Eng muhimi, O'rta Sharqdagi ingliz-rus raqobatini yechishda, harbiy-strategik sohada yangi yutuqlarni ta'minlashda Buxoro iqtisodiyoti Rossiya harbiy kuchlari uchun o'ziga xos bir xomyashyo vazifasi sifatida xizmat qiladigan regionga aylanishi nazarda tutilgan edi. Mana shuning uchun ham, Rus hukumati asta-sekinlik bilan qadam va qadam Buxoro iqtisodiyotiga o'z ta'sirini o'tkazib, uni o'z izmiga tushirib olish siyosatini olib bordi.

XIX asrning 70-yillaridayoq, Buxorodagi barcha ichki bozorlar paxtadan tayyorlangan rus tovarlari bilan to'ldirildi. Eng muhimi, aynan mana shu davrga kelib, bozorlarda ushbu tovarlarni oldingidek tatarlar emas, balki Buxoro ichki bozorlarini endi aynan rus millatiga mansub bo'lgan savdogarlar² egallab olib, o'zlari savdo qilishmoqda edi.

Qisqa muddat ichida, ya'ni XIX asrning 70—90-yillarida Buxoro iqtisodiy hayoti uchun muhim bo'lgan deyarli barcha sanoat mahsulotlari jumladan temir, mis, latun, qalay, chuyon qozonlar, misdan yasalgan mollar, qog'oz, qo'rg'oshin, bo'yoqlar, ipakalar, shamlar, chinni buyumlar va boshqa ko'plab hayotiy tovarlar chor Rossiyasidan olib kelinadigan bo'lindi.

Rus burjuaziyasi turli xil yo'llar orqali Buxoro bozorlaridan o'zlarining doimiy raqiblari bo'lgan xorijiy savdogarlar, ya'ni g'arbiy yevropaliklar hamda afg'onistonlik va hindistonliklarni, ularning tovarlarini siqib chiqara boshlashdi.

Bir so'z bilan aytganda, Buxoro iqtisodiyotining ichki bozorlarida iqtisodiy sohada hukmronlikni qo'lga kiritish uchun avjga chiqqan Rossiya-Angliya raqobati ularning o'zaro keskin kurashlariga olib keldi va ushbu kurashni bevosita boshlagan ruslar bunda asta-sekinlik bilan to'la ustunlikka erishishga va Buxoro ichki bozorlarining to'la nazoratini o'z qo'llariga kiritishga muvaffaq bo'lishdi. 1881-yilga kelib, Buxoro bozorlarida ruslar va rus tovarlari to'la gegemonlikni qo'lga kiritib, yagona monopoliya hukmronlik qilish huquqiga ega bo'ldi.

Ushbu holat yuzaga kelganligining isbotini o'sha paytda Rossiya hukumatining yirik ma'murlaridan biri hisoblangan diplomat-amaldor Charikovning quyidagi so'zlaridan ham bilish mumkin. Charikov nafaqat katta diplomat bo'lgan, balkim u keyinchalik Buxoro

¹ Amaldagi traktatlar, konvensiyalar va bitimlar to'plami. Ikkinchi nashr. 1-jild. — Sankt-Peterburg, 1902. 421–425-betlar.

Rossiya imperiyasi qonunlari to'plami. 1-kitob. 2-jild. — Sankt-Peterburg, 1912. 452–453-betlar.

² O'zR MDA, I-1 jamg'arma, 27 ro'yxat, 1503-ish, 3-5 betlar

amirligida Rossiya imperatorligining Siyosiy agenti vazifasida ishlagan.1890-yili Buxoro amirligiga Rossiyadan un, shakar, manufaktura, choy, kerosin, bo'yoqlar, arpa, chinni idishlar va boshqa turdagi olib kelingan tovarlarning umumiy qiymat miqdori 2 mln 119 ming 862 pudni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 1891-yilda 2 mln 480 ming 277 pudni tashkil etdi³.

O'z navbatida, chor ma'murlari Buxoro amirligidan eng sifatli va xaridorgir tovarlarni arzon bahoda olib, o'z yurtlariga — Rossiyaga olib ketishdi. A. I. Remezning bergan ma'lumotlariga qaraganda, 1880—1881-yillarda Buxoro amirligidan Rossiyaga 4 ming pud qorako'l teri, 410 ming pud paxta, 6 mln 100 ming pud dityar olib ketilgan⁴. Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o'rtasida tovar almashinishiga to'xtaladigan bo'lsak, eksport Buxorodan: Paxta, yigirilgan ip, ipak, quruq mevalar va mashhur qorako'l terilari.

Import Rossiyadan: Metalldan yasalgan buyumlar (temir, mis, cho'yan), movut, qog'oz va bo'yoqlar. 1830-yilda Rossiyadan 1,8 million rubllik mol keltirilgan bo'lsa, 1840-yilga kelib bu ko'rsatkich 3,2 million rublga yetgan.1868-yilgi Rossiya-Buxoro sulh shartnomasi savdo uchun yangi eshiklarni ochdi: Rus savdogarlari amirlik hududida erkin harakat qilish, karvonsaroylar qurish va boj to'lovlarini minimal (tovar qiymatining 2.5% miqdorida) to'lash huquqini oldilar. Rossiyada to'qimachilik sanoati rivojlanishi bilan Buxoro paxtasiga talab keskin ortdi. Buxoro paxta yetkazib beruvchi asosiy bazaga aylandi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida dunyoda modernizatsiya jarayonlari kechayotgan bir davr edi.Bu davrda savdo munosabatlari tubdan o'zgardi.1888-yilda Kaspiyorti temir yo'lining Buxoro hududidan o'tishi savdo aylanmasini o'nlab marta oshirib yubordi.

Buxoro, Kogon (Yangi Buxoro) va Chorjo'yda Rossiya davlat banki va xususiy banklarning masalan, Rossiya-Osiyo banki bo'limlari ochildi. Rossiya manzilgohlari: Kogon, Termiz va Chorjo'y kabi shaharlarda rus manzilgohlari paydo bo'lib, u yerda paxta tozalash zavodlari, yog' va tamaki fabrikalari qurildi.

1886-yilda Buxoroda Rossiya siyosiy agentligi tashkil etildi. U nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy aloqalarni, bojxona tushumlarini va rus sarmoyadorlarining manfaatlarini himoya qilishni nazorat qildi. XX asr boshlariga kelib, Buxoro amirligining tashqi savdo aylanmasining deyarli 90% dan ortig'i Rossiya hissasiga to'g'ri kelgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o'rtasidagi savdo aloqalari tashqi ko'rinishda o'zaro manfaatli almashinuv sifatida namoyon bo'lsa-da, amalda u noteng va mustamlakachilik xarakteriga ega iqtisodiy tizimni shakllantirdi. Buxoro asosan xomashyo yetkazib beruvchi hududga aylantirilib, ayniqsa paxta va qorako'l terisi kabi mahsulotlar Rossiya sanoati ehtiyojlariga bo'ysundirildi.

1868-yilgi sulh shartnomasi va keyingi imtiyozlar rus savdogarlariga keng imkoniyatlar yaratib, mahalliy savdo tizimini izdan chiqardi va bojxona siyosatini Rossiya manfaatlariga moslashtirdi. Temir yo'l qurilishi, bank tizimining kirib kelishi hamda rus manzilgohlarining paydo bo'lishi iqtisodiy integratsiyani kuchaytirgan bo'lsa-da, bu jarayon Buxoro iqtisodiyotining mustaqil rivojlanishini emas, balki uning Rossiya bozoriga tobora qaram bo'lib borishini tezlashtirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Ahmedov B. O'zbekiston tarixi (XIX – XX asr boshlarida). — Toshkent: O'qituvchi, 2003. — 320 b.
2. Bartold V. V. Turkiston tarixi. — Toshkent: Sharq, 1993. — 480 b.
3. Becker S. Russia's Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865–1924. — Cambridge: Harvard University Press, 1968. — 368 p.
4. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. — Berkeley: University of California Press, 1998. — 340 p.

³ RDXTA, 400-jamg'arma, 261/911-ro'yxat, 73-ish, 2-qism, 63-bet.

⁴ Rossiya Buxoro Tarix chorahasida.R.Xoliqova.Toshkent 2005.196 bet.

5. Morrison A. Russian Rule in Samarkand 1868–1910: A Comparison with British India. — Oxford: Oxford University Press, 2008. — 400 p.
6. Pierce R. A. Russian Central Asia 1867–1917: A Study in Colonial Rule. — Berkeley: University of California Press, 1960. — 350 p.
7. Rajabov Q., Haydarov M. O'zbekiston tarixi (XIX asr – XX asr boshlarida). — Toshkent: Universitet, 2010. — 280 b.
8. Soucek S. A History of Inner Asia. — Cambridge: Cambridge University Press, 2000. — 376 p.
9. Xoliqova R. Rossiya va Buxoro tarix chorrahasida. — Toshkent: Fan, 2005. — 196 b.
10. Rossiya imperiyasi qonunlari to'plami. 1-kitob, 2-jild. — Sankt-Peterburg, 1912. — 452–453-b.

